



Transport va avtomobilsozlik sohalarida
kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha
tarmoq kengashi

Avtomobil transporti sohasi

TARMOQ MALAKA RAMKASI



TOSHKENT - 2026

“Avtomobil transporti sohasi” tarmoq malaka ramkasi 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasi shakli” va Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga asosan Transport va avtomobilsozlik sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

UZ-TMR-2026-T1.0-019



1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi va Mashg'ulotlarning milliy klassifikatoriga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, yo'lovchi va yuk tashish, transport vositalarini boshqarish, ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha sakkizta malaka darajasini tarmoqda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma (mahorat), mas'uliyat va mustaqillik xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Tarmoq malaka ramkasi avtovokzal va avtostansiyalar, yo'lovchilarni tashish sohasidagi xizmatlar tarmog'ida malaka darajalarining yagona shkalasini belgilaydi, malakalarning qiyoslanishini ta'minlaydi, kasbiy standartlar va mutaxassislar malakasini muvofiqligini tasdiqlash hamda ularning malakasini tan olish tizimi uchun asos hisoblanadi.

Ushbu tarmoq malaka ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

guruh – iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT (2.1-tahrir)) bo'yicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini o'z ichiga olgan faoliyat turi;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

kichik sinf – sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o'rtacha darajada (tor doirada) aniqlangan turlarini ifodalovchi faoliyat turi.

Soha quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlari asosida faoliyatini amalga oshiradi:

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-apreldagi "Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida" 419-I-sonli Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi "Avtomobil transporti to'g'risida" 674-I-sonli Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-martdagi "Avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3589-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-59-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabr "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo'lovchilar va bagaj tashish qoidalarini hamda avtobuslarda yo'lovchilar tashish xavfsizligini ta'minlashga doir talablarni tasdiqlash haqida"gi 482-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-sentyabrdagi "Davlat avtovokzallari va avtostansiyalarini boshqarish samaradorligini ta'minlashga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 712-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-iyuldagi "Avtomobil transportida yo'lovchilarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo, xalqaro, shuningdek yuklarni xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyatini

litsenziyalash yuzasidan davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 636-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-dekabrda "Avtomobil transportida yo'lovchi tashish yo'nalishlari bo'yicha ochiq tenderlarni elektron tarzda tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 738-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 18-martda "Jamoat transportini moliyalashtirishning yangi tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 116-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-sentyabrda "Transport sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda ilmiy va innovatsion faoliyat tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 504-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 22-yanvarda "Yuk va yo'lovchilarni tashishda avtotransport vositalariga yo'l varaqlarini elektron shaklda rasmiylashtirish va yuritish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 44-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyunda "Kasbiy malakalarni rivojlantirish tizimini tashkil etish va boshqarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VM-369-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003-yil 9-oktyabrda 1282-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Chipta-hisob va yo'l varaqlarini to'ldirish bo'yicha yo'riqnoma";

O'zbekiston Respublikasi Transport vazirining 2021-yil 25-sentyabrda 14-son buyrug'i bilan tasdiqlangan (ro'yxat raqami 3324, 2021-yil 6-oktyabr) "Yo'lovchi avtovokzallari va yo'lovchi avtostansiyalari to'g'risidagi nizom".

Asosiy qisqartmalar:

MMR – Milliy malakalar ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori.

2. Tarmoq malaka ramkasining pasporti

Avtomobil transporti sohasi — bu aholining harakatlanishi va yuk tashish ehtiyojlarini qondirishga, iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga transport xizmati ko'rsatishga qaratilgan faoliyatlar majmuasidir. Sohada yo'lovchi va yuk tashish, transport vositalarini boshqarish, ularga texnik xizmat ko'rsatish hamda xavfsizlik talablarini ta'minlash ishlari amalga oshiriladi. Avtomobil transporti milliy iqtisodiyotning barqaror ishlashi va aholining turmush sifatida muhim rol o'ynaydi.

Avtomobil transporti sohasidagi tarmoq malakalar ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasida Avtomobil transporti sohasidagi tarmoq malaka ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan.

Seksiya nomi:

H – seksiya Tashish va saqlash

O'zbekiston Respublikasida Avtomobil transporti sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi.

T/r	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1.	H - seksiya Tashish va saqlash	33 Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	33.1 Tayyor metall buyumlar, mashina va uskunalarni ta'mirlash	33.17 Transport (avtobus va elektrobus) uskunalari ta'mirlash, texnik va servis xizmatini ko'rsatish	33.17.9 Boshqa toifalarga kiritilmagan transport uskunalarining boshqa turlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish
2.		49 Quruqlikdagi va quvur transporti	49.3 Quruqlikdagi boshqa yo'lovchi transporti	49.31 Shahar va shahar atrofiga qatnaydigan quruqlikdagi yo'lovchi transporti	49.31.0 Shahar va shahar atrofiga qatnaydigan quruqlikdagi yo'lovchi transporti
3.		52 Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati	52.2 Transport (avtobuslar)da tashish bo'yicha asosiy faoliyat	52.21 Quruqlik transporti sohasidagi xizmatlar	52.22.0 Quruqlik transporti sohasidagi xizmatlar

TMR quyidagi kasbiy faoliyat turlari va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1.	13242	Avtomobil transporti sohasida bo'linmalar rahbarlari
2.	31292	Tashishni tashkil etish va transport xavfsizligi xodimlari
3.	43232	Transport dispetcherlari (temir yo'l transporti dispetcherlaridan tashqari)
4.	43233	Quruqlik transporti xodimlari
5.	72311	Mexanik transport vositalari dvigatellari va transmissiyasini ta'mirlash bo'yicha avtomexaniklar va chilangarlar

3. Tarmoq tahlili

Avtomobil transporti sohasida faoliyat yurituvchi korxonalardan biri "Toshshahartransxizmat" AJ bo'lib, 1992-yilgacha Toshkent shahrida yo'lovchi tashish bilan Toshkent tramvay-trolleybus ishlab chiqarish boshqarmasi, Toshkent metropoliteni, "Toshshaharyo'lovchiavtotrans" Toshkent shahar yo'lovchi transporti birlashmasi shug'ullanib kelgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 4-iyundagi PF-425-son Farmoniga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Toshkent shahar yo'lovchilar tashish transporti korxonalari davlat uyushmasi ("Toshshaharyo'lovchitrans") faoliyatini tashkil yetish to'g'risida" 1992 yil 5 iyundagi 266-sonli qaroriga asosan "Tashshaharyo'lovchitrans" davlat uyushmasi tashkil etilgan va o'z tarkibida yuqoridagi yo'lovchi tashuvchilarni birlashtirgan.

Hukumat qarorlari bilan 2003 yilda "Tashshaharyo'lovchitrans" davlat uyushmasi "Tashshaharyo'lovchitrans" aksiyadorlik kompaniyasiga, 2006 yilda esa "Toshshahartransxizmat" uyushmasiga aylantirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 9-oktabrdagi "Toshkent shahrida yo'lovchi tashish transportini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ2048-son qarori bilan keyinchalik "Toshshahartransxizmat" uyushmasi negizida «Toshshahartransxizmat» aksiyadorlik jamiyati tashkil qilingan.

"Toshshahartransxizmat" AJ Yagona aksiyadorining 2021-yil 11-oktabrdagi 4-sonli qaroriga hamda Jamiyatning 2021-yil 23-martdagi 47-son, 12-oktabrdagi 149-son va 9-dekabrdagi 184-son buyruqlariga muvofiq, "Toshshahartransxizmat" AJ tizimidagi yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan "1-Avtobus saroyi", "2-Avtobus saroyi", "4-Avtobus saroyi", "5-Avtobus saroyi", "7-Avtobus saroyi", "8-Avtobus saroyi", "12-Avtobus saroyi" va "18-Avtobus saroyi" MCHJlarni qo'shib olish yo'li bilan qayta tashkil etish hamda yuridik maqomsiz Jamiyatning filiallariga aylantirish bo'yicha qaror qabul qilingan.

"Toshshahartransxizmat" AJ boshqaruv organlarining qaroriga ko'ra, amaldagi qonunchilik talablariga rioya etgan holda, o'z tarkibida qo'shimcha korxona va filiallarni tashkil etishi mumkin.

Hozirgi kunda "Toshshahartransxizmat" AJ tarkibiga 8 ta avtobus saroyi filiallaridan tashqari "Toshavtobustrans" MChJ kiradi.

Avtobus saroylari filiallari tegishli litsenziya asosida shaharda yo'lovchi tashish bilan shug'ullanadi.

"Toshavtobustrans" MChJ buyurtma asosida jismoniy va yuridik shaxslarga transport xizmati ko'rsatadi.

Toshkent shahar jamoat transporti tizimini kompleks rivojlantirish, yo'lovchilarga sifatli va xavfsiz transport xizmatlarini ko'rsatish, transport infratuzilmasini yaxshilash, harakat tarkibini barcha qulayliklarga ega bo'lgan zamonaviy avtobuslar bilan yangilash, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash hamda

piyodalarga qulay harakatlanish muhitini yaratish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Toshkent shahar jamoat transporti tizimini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-111-son qarori qabul qilingan.

Qarorga ko'ra, Toshkent shahar jamoat transporti tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

jamoat transporti tizimini uning barcha turlarini uzviy bog'lagan holda kompleks rivojlantirish, aholining jamoat transportidan foydalanish darajasini kamida ikki barobarga oshirish;

jamoat transporti infratuzilmasini rivojlantirish, metropoliten tarmog'ini kengaytirish, zamonaviy transport-o'tish bog'lamalarini hamda namunaviy loyihalar asosida avtobus bekatlarini tashkil etish, jamoat transporti harakatiga ustuvorlik berish uchun chorraha va ko'chalarni qayta loyihalashtirish;

tashuvchilarni moliyalashtirish tizimi va tarif siyosatini takomillashtirish orqali soha korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish hamda xususiy sektor ulushini ikki barobarga oshirish;

raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni keng qo'llagan holda transport vositalari harakatini boshqarishning intellektual ("aqlli chorraha", "aqlli avtobus" va "aqlli bekat") tizimlarini joriy etish hamda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash;

jamoat transporti harakat tarkibini zamonaviy, ekologik toza avtobuslar, jumladan elektrobuslar bilan yangilash.

"Toshkent shahar jamoat transporti tizimini 2025-yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI" bilan poytaxt aholisi va mehmonlarining sifatli, ommabop va xavfsiz transport xizmatlariga o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish hamda yo'lovchilarga qulay va xavfsiz harakatlanish muhitini yaratish uchun jamoat transport tizimini kompleks rivojlantirishning o'rta muddatli maqsadlari, vazifalari va ustuvor yo'nalishlari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning bevosita tashabbuslari asosida, shahar jamoat transporti tizimini kompleks rivojlantirish, yo'lovchilarga sifatli va xavfsiz transport xizmatlarini ko'rsatish, jamoat transporti jozibadorligini oshirish bo'yicha maqsadli ishlar olib borilmoqda.

Tasdiqlangan "Yo'l xarita"lari asosida aholiga avtotransport xizmati ko'rsatishni yaxshilash, yangicha yondoshuv asosida jamoat transporti yo'nalishlari tarmog'ini kengaytirish va harakat tarkibini zamonaviy, ekologik toza avtobuslar bilan yangilash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Hozirgi vaqtda, "Toshshahartransxizmat" AJ tarkibida 8 ta avtobus saroylari tomonidan 165 ta avtobus yo'nalishlarda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatilmoqda.

Yo'nalishlarga kunlik ishga chiqarilayotgan 1662ta avtobuslar bilan 23805ta qatnovlarni bajarilishi belgilangan.

T/r	Filial nomi	Yo'nalish soni	Ish kunidagi jadvallar soni	Ish kunidagi qatnovlar soni
-----	-------------	----------------	-----------------------------	-----------------------------

			(reja)	(reja)
1.	“1-Avtobus saroyi” filial	19	188	2761
2.	“2-Avtobus saroyi” filial	21	227	3160
3.	“4-Avtobus saroyi” filial	17	178	2416
4.	“5-Avtobus saroyi” filial	18	178	2649
5.	“7-Avtobus saroyi” filial	20	197	2813
6.	“8-Avtobus saroyi” filial	25	244	3897
7.	“12-Avtobus saroyi” filial	21	212	2541
8.	“18-Avtobus saroyi” filial	24	238	3568
Jami		165	1662	23805

Toshkent shahar jamoat transporti tizimini rivojlantirishning belgilangan ustuvor yoʻnalishlari doirasida:

2023-yil 1-martdan boshlab Toshkent shahar jamoat transportiga 1202 dona yangi avtobus va elektrobuslar xarid qilinib, jamoat transporti toʻliq brutto shartnoma tizimiga oʻtkazildi.

Jamoat transportini isloh qilish boʻyicha amalga oshirilgan ishlar natijasiga koʻra, 2022 -2024-yillar mobaynida:

yoʻnalishlar soni 148 tadan 163 taga (+11 %);

avtobuslarning kunlik qatnovlar soni 15 000 dan amalda 23 000 ta (+53 %) ga oshirildi;

kunlik yoʻlovchi tashuvlar hajmi 480 ming (2022-yil)dan 1,2 mln (2024-yil) nafarga (+150 %) oshdi;

oraliq interval 22 daqiqadan 10-12 daqiqagacha (2 barobar) kamaytirildi.

Toshkent shahar hokimining 2024-yil 13-dekabrda “Toshkent shahridagi jamoat transporti tizimida yoʻlkira haqini toʻlashda elektron toʻlov tizimidan foydalanishni ragʻbatlantiruvchi tariflarni joriy etish toʻgʻrisida”gi 918-14-0-Q/24-son qaroriga koʻra, yoʻl haqi toʻlovida shaffoflik va tushumlar toʻliqligini taʼminlash, haydovchining moliyaviy bogʻliqligini kamaytirish va xavfsizlikni oshirish maqsadida, 2025-yil 1-yanvardan yoʻlkira haqini naqd pul shaklida toʻlash amaliyoti bekor qilindi.

Elektron toʻlov turlaridan foydalanuvchi yoʻlovchilar yoʻl haqi toʻlovini 1700 soʻm evaziga amalga oshiradilar, yaʼni elektron toʻlovda yoʻl haqi oʻzgarishsiz qoldi.

Yoʻlovchilar yoʻl haqini naqd pul bilan toʻlash uchun bevosita bekatlar va ularga yaqin hududlarda oʻrnatilgan PAYNET, MultiPay yoki Oson infokioskalaridan 3000 soʻm evaziga bir martalik QR-chipta xarid qilishlari mumkin.

Shuningdek, naqd puldagi toʻlovlarni amalga oshiradigan yoʻlovchilar uchun quyidagi sharoitlar yaratildi:

avtobuslarda NFC tizimi mavjud barcha bank kartalari orqali toʻlovlarni amalga oshirishlari mumkin;

5110 ta (Paynet 4 460, Oson 250 va Multipay 400 dona) infokioskalarida naqd pulga (3000 soʻm) QR chiptalari xarid qilish imkoniyatlari yaratildi;

Transport kartalariga bo'lgan talabni qondirish maqsadida, qo'shimcha 70 ming dona transport (ATTO) kartalari amaliyotga tadbqiq etildi;

ATTO mobil ilovasi orqali elektron chiptalarni xarid qilish va to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatlari kengaytirildi.

Kadrlar siyosati, ishchi-xodimlar, shu jumladan, korxona boshqaruv va ijroiya organi a'zolari to'g'risida ma'lumot, ijtimoiy himoya

"Toshshahartransxizmat" AJ bo'yicha jami shtat birliklari — 5647 tani tashkil etadi.

Shundan:

"Toshshahartransxizmat" AJ – 151 ta

"Toshavtobustrans" UK – 40 ta

Avtobus saroy filiallari -5392 ta

Toshshahartransxizmat aksiyadorlik jamiyati korxonalarda 2026-yilning 5-yanvar oyi holatiga ishlovchilarning soni to'g'risida ma'lumot																						
№	Korxona nomi	Ishlovchilar soni																				
		Hammasi			Haydovchilar			Ta'mirlovchilar			Konduktorlar			Yordamchi xodimlar			Ma'muriy boshqaruv xodimlar			Muhandis, xizmatchilar		
		reja	amal	farqi	reja	amal	farqi	reja	amal	farqi	reja	amal	farqi	reja	amal	farqi	reja	amal	farqi	reja	amal	farqi
1	"Toshshahartransxizmat" AJ	162	151	11	0	0	0	0	0	0	0	0	0	25	24	-1	126	120	-6	7	7	0
2	"1-Avtobus saroyi"	611	579	32	412	393	-19	34	35	1	0	0	0	98	87	-11	16	15	-1	51	48	-3
3	"2-Avtobus saroyi"	797	781	16	578	567	-11	39	38	-1	0	1	1	111	103	-8	15	17	2	54	55	1
4	"4-Avtobus saroyi"	590	582	8	381	381	0	48	47	-1	0	2	2	98	88	-10	15	15	0	48	47	-1
5	"5-Avtobus saroyi"	595	593	2	398	398	0	37	37	0	0	0	0	93	93	0	16	14	-2	51	51	0
6	"7-Avtobus saroyi"	678	658	20	470	467	-3	42	40	-2	0	0	0	100	88	-12	16	14	-2	50	49	-1
7	"8-Avtobus saroyi"	774	745	29	541	535	-6	51	47	-4	0	0	0	110	94	-16	15	16	1	57	53	-4
8	"12-Avtobus saroyi"	693	676	17	493	486	-7	40	38	-2	0	0	0	93	87	-6	15	14	-1	52	51	-1
9	"18-Avtobus saroyi"	787	778	9	559	558	-1	45	45	0	0	1	1	113	109	-4	15	12	-3	55	53	-2
10	"Toshavtobustrans"	68	40	28	63	35	-28	0	0	0	0	0	0	0	0	0	5	5	0	0	0	0
	jami:	5755	5583	172	3895	3820	-75	336	327	-9	0	4	4	841	773	-68	254	242	-12	425	414	-11

Xodimlarni ishga qabul qilish, mehnat shartnomasini bekor qilish O'zbekiston Respublikasining amaldagi Mehnat Kodeksi talablari asosida amalga oshiriladi.

Ish beruvchi ("Toshshahartransxizmat" AJ) va xodimlar vakili (Kasaba uyushmasi) o'rtasida Jamoa shartnomasi tuzilgan.

Jamoa shartnomasi — yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni va ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi mehnat to'g'risidagi huquqiy hujjat hisoblanadi¹.

Jamiyat filiallari avtobus haydovchilarining ish vaqti va dam olish vaqti O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013-yil 9-sentabrda 2506-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan Nizom asosida tashkil etiladi.

Xodimlarni tanlashning malaka talablari.

1. Boshqaruv ma'muriy xodimlar, haydovchilar va ta'mirllovchilikka nomzodlarning ish tajribasi, kasbiy tayyorgarligi va mavjud bo'sh ish o'rinlariga qo'yilgan malakaviy talablarga muvofiqligi, shuningdek, salohiyat va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlanadi.

2. Haydovchilikka nomzodlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-maydagi "Avtomototransport vositalari va shahar elektr transporti vositalari haydovchilarini tayyorlash hamda qayta tayyorlash bo'yicha nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 408-sonqarori va "Toshshahartransxizmat" AJning 2023-yil 3-apreldagi "Haydovchilarni ishga qabul qilish va avtobuslarni haydovchilarga biriktirish bo'yicha Nizomlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 53-son buyrug'i asosida tanlovda umumiy asosda qatnashadi. Tanlovda yuqori ball to'plagan haydovchilar boshqa nomzodlarga nisbatan ustunlikka ega hisoblanadi. Ushbu holat haydovchilarning yo'lovchi tashish sohasida ishlaganligi, tashish jarayoni va yo'lovchi tashish hamda yo'l harakati xavfsizligi qoidalaridan xabardorligi, yangi ish joyiga moslashishga kamroq vaqt sarflashi bilan izohlanadi.

3. Korxonaning faoliyat samaradorligini oshirish uchun o'z xodimlarining kasb va martaba tizimida o'sishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Haydovchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash Transport vazirligi huzuridagi "Transport sohasi kadrlarini qayta tayyorlash malakasini oshirish instituti" tomonidan amalga oshiriladi.

4. Shu bilan birga, O'zbekistan Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, Toshkent davlat Transport universiteti, tegishli kasb-hunar yo'nalishidagi texnikum va kollejlarda bitiruvchilarini ma'muriy boshqaruv shtat birliklariga hamda "D va DE" toifaga ega bo'lganlarni haydovchilik lavozimlariga tanlab olish ishlari amalga oshiriladi.

Shartnoma asosida Toshkent davlat Transport universiteti talabalarining "Toshshahartransxizmat" AJ filiallarida amaliyot o'tishi yo'lga qo'yilgan.

5. Davlat tilini mukammal darajada, shu jumladan chet tillarini biladigan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalana oladigan nomzodlarga ustunlik berilishi, shuningdek, rahbarlik lavozimlari uchun nomzodlarga qo'shimcha ravishda boshqaruv organlari tizimidagi ish staji va xodimlarga rahbarlik qilish tajribasiga alohida e'tibor qaratiladi.

6. Mavjud bo'sh (vakant) ish o'rnining yopilishi nomzodning yakuniy ish taklifini qabul qilgan vaqtga qarab belgilanadi.

"Toshshahartransxizmat" AJ ishchi xodimlari haqida								
MA'LUMOT								
T/r	Ishchilar soni	Shundan:		Shundan:				
		Erkaklar soni	Ayollar soni	Boshqaruv xodimlari	Mutaxassislar	Ishlab chiqarish xodimlari	haydovchilar	Xizmat ko'rsatuvchi xodimlar
1	5583	5150	433	243	411	335	3820	774

“Toshshahartransxizmat” AJ avtobus saroylariga Xitoy Xalq Respublikasidan yangi zamonaviy, ekologik toza avtobus va elektrobuslarni olib kelinishi hisobiga ularni ta’mirlash va servis xizmat ko’rsatish bo’yicha ishlab chiqaruvchi xorijiy davlatlar mutaxassislari bilan hamkorlikda ta’mirlovchilar va muhandislarni maxsus o’qitish tashkil etilgan.

Gaz, elektr energiyasi bilan quvvatlanuvchi elektrobuslar va elektron tizimga ega bo’lgan “MAN”, “YUTONG”, “KING LONG” rusumli transport vositalariga xizmat ko’rsatuvchi yetuk kadrlarga talablar yuqori bo’lib bormoqda. Ushbu mutaxassislik dolzarb kasblar ro’yxati hamda kelajakda talab yuqori bo’lgan kasblar sarasiga kirib bormoqda.

Transport vazirligining “Transport sohasi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti”, “Toshshahartransxizmat”AJ va Germaniyaning “Deutsche Bahn”, “DB Engineering & Consulting GmbH” kompaniyalari tomonidan birgalikda tashkil etilgan maxsus o’quv kurslarida jamiyatining avtobus haydovchilari Yevropa mamlakatlari va milliy ta’lim dasturlari uyg’unlashtirilgan o’quv dasturiga muvofiq, haydovchilar qayta tayyorgarlikdan o’tkazilib kelinmoqda.

Yana bir shunday tashkilotdan biri “Uzavtovokzal servis” bo’lib, bugungi kunda mamlakatimizda aholiga ko’rsatilayotgan avtotransport xizmatlari sifatini yaxshilash, chekka qishloq va tumanlarni viloyat markazlari bilan bog’lashda jamoat transporti qatnovini yo’lga qo’yishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 10-yanvardagi “Aholiga transport xizmati ko’rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo’lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” qarori va boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Jumladan, bundan 40 yil avval bunyod etilgan va tashlandiq holga kelib qolgan “Toshkent” avtovokzalini zamonaviy qiyofaga keltirish, bu yerdagi sharoitlarni yaxshilash, yo’lovchilar va mamlakatimizga kelayotgan sayyohlar uchun qulayliklar yaratish, mahalliy va xalqaro yo’nalishlarda qatnovlarni tizimli yo’lga qo’yish maqsadida keng ko’lamli rekonstruktsiya ishlari amalga oshirildi.

Ayni paytda “Toshkent” avtovokzalida bir vaqtning o’zida 2 ming 200 yo’lovchiga xizmat ko’rsatish imkoni yaratilgan. Vokzal so’nggi rusumdagi texnologiyalar bilan jihozlangan. Bu yerda zamonaviy VIP-zal, ona va bola, tibbiyot xonalari, ayollar va erkaklar uchun alohida namozxona, mehmonxona, haydovchilar uchun dam olish xonasi, dispetcherlik xizmati, chiptaxona, do’konlar, kafe-bar tashkil etilgan. Bundan tashqari imkoniyati cheklangan fuqarolarning avtovokzal hududida emin-erkin harakat qilishi uchun ham sharoitlar yaratilgan. Ikkita lift, ikkita eskalator, mahsus panduslar shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda “Toshkent” avtovokzalidan 12 ta xalqaro yo’nalish bo’yicha xizmat ko’rsatilmoqda. Kuniga Qozog’istonning Chimkent shahriga 4 ta, Turkiston shahriga 1 ta, Qizil O’rda shahriga 1 ta, Olmaota shahriga 3 ta, Ushkunur, Tarozi, Yettisoy va poytaxt Nur-Sulton shaharlariga bittadan, Qirg’iziston poytaxti Bishkek

shahriga 2 ta, Tojikistonning Xo'jand shahriga 1 ta hamda Rossiya Federatsiyasining Nijniy Novgorod shahriga haftasiga 3 ta va Tatariston poytaxti Qozon shahriga haftasiga 2 ta to'g'ridan-to'g'ri reyslar bo'lib, kuniga 15 dan ortiq reyslar amalga oshiriladi. Avtobuslar xizmatidan 500-1000 tagacha yo'lovchilar foydalanadi.

Qolaversa, "Toshkent-Samarqand", "Toshkent-Zarafshon", "Toshkent-Kattaqo'rg'on", "Toshkent-Xatirchi", "Toshkent-Mirbozor", "Toshkent-Paxtaobod", "Toshkent-Uchquduq", "Toshkent-Gagarin", "Toshkent-Zomin", "Toshkent-Yangier", "Toshkent-Termiz", "Toshkent-Denov", "Toshkent-Buxoro", "Toshkent-Qorako'l" yo'nalishlari bo'yicha kuniga 10 dan ortiq mahalliy reyslar amalga oshirilib, avtobuslar xizmatidan kuniga 400-500 tagacha yo'lovchi foydalanmoqda. Uzoq masofali yo'nalishlarga chiptalar 10 kun ilgari sotilishi yo'lga qo'yilgan. Imtiyozli yo'lovchilar hujjatlarini ko'rsatgan holda yo'lovchi tashish qoidalariga binoan o'z huquqlaridan foydalanadi.

Hozirda avtovokzalda yo'lovchilarga yuqori saviyada xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan bo'lib, har bir avtobus yo'nalishga chiqishidan avval to'liq texnik, haydovchilar esa tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. Avtobuslarning sanitar holati ham doimo nazorat ostida. Shuningdek, avtovokzalda qatnaydigan avtobuslardan foydalangan yo'lovchilar yuz berishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalardan majburiy sug'urtalanadi, sug'urta puli chiptalar qiymatiga kiritilgan va o'zaro tashuvchilar bilan tuzilgan shartnomalar asosida taqsimlanadi.

O'rta asr davrida (Shosh, Yorkent, Kent) Toshkentning o'n ikkita darvozasi bo'lib, O'rta Osiyoning xamma tomonlariga yo'l ana shu darvozalardan boshlangan.

1978-yili iyul oyida O'zbekistonning darvozalaridan biri "Toshkent" avtovokzali qurilib yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishni boshladi. 1978 – 1999-yillar davomida Avtovokzalda O'zbekiston Respublikasidan qo'shni Davlatlar Qozog'iston Respublikasining Chimkent, Jambul (Taraz), Turkiston, Kentau, Olma-ata shaharlariga, Qirg'iziston Respublikasining Bishkek shahriga, Tojikiston Respublikasining Xo'jand (Leninobod) shaharlariga Respublikamizning Farg'ona Vodiysi shaharlari Qo'qon, Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlari shaharlariga xam yo'nalishlar mavjud bo'lgan va ushbu yo'nalishlar bo'yicha kuniga – 45 – 60 tadan reyslar bajarilib, o'rta hisobda – 1000 tadan – 3000 tagacha yo'lovchilarga xizmat ko'rsatib kelgan.

"Toshkent" avtovokzali bir vaqtning o'zida – 2200 ta yo'lovchiga xizmat ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lib, yo'lovchilarni avtobuslarga chiqish perronlari soni – 31 tani tashkil qilgan va – 80 ta avtobus joyi mavjud bo'lgan. Bundan tashqari haydovchilar uchun reys oldi dam olish xonalari, yo'lovchilar uchun – bir zumda kafelari, oshxonalar, sataroshxona, bolalik onalar xonalari hamda mehmonxona va (hojatxona)lar mavjud bo'lgan.

1999–2018-yillar mobaynida, "Toshkent" avtovokzali O'zbekiston Respublikasining viloyatlari — shaharlararo yo'nalishlariga xizmat ko'rsatib keldi. Shu jumladan: Navoiy viloyatining Zarafshon, Uchquduq shaharlariga, Mirbozor, Xatirchi tumanlariga, Samarqand viloyatining Samarqand, Katta-qo'rg'on

shaharlariga, Sirdaryo viloyatining Paxtaobod tumaniga kuniga o'rtacha – 8 tadan 15 tagacha reyslar bajarilib, 400 dan – 600 tagacha yo'lovchilarga xizmat ko'rsatib kelgan.

Jahon talablari va standartlariga javob beradigan hamda O'zbekiston Respublikasining Butun dunyo hamjamiyati oldidagi mavqeyini talab darajasiga ko'tarish maqsadida Respublikamiz poytaxti darvozalaridan biri bo'lmish 40 – yillik "Toshkent" avtovokzalini hozirgi kun standartlariga javob beradigan tarzda qayta ta'mirlash rekonstruksiya qilish talab etildi.

Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbuslari bilan yo'lovchilarga madaniyatli xizmat ko'rsatish maqsadida "Toshkent" avtovokzalida 2018-yilning 1-iyun kunidan rekonstruksiya ishlari boshlab yuborildi.

"UzAvtovokzal servis" davlat unitar korxonasi tizimidagi "Toshkent" avtovokzali mamlakatning eng yirik korxonalaridan biri bo'lib, uni loyihalashda fan va texnikaning eng so'ngi yutuqlari hisobga olingan, yo'lovchilarga yuksak namunali xizmat ko'rsatish tadbirlar kompleksi ko'zda tutildi. Birinchi qavatda 300 – kishiga mo'ljallangan kutish zali joylashtirildi, yo'lovchilar uchun axborot – ma'lumot vositalari, yo'l kira va avtobuslarning harakatlanish jadvallari ko'rinadigan joyga osilgan, aloqa bo'limi, sug'urtalash, uyali aloqa operatorlariga xizmat ko'rsatish, oshxona va qahvaxonalar muntazam ravishda yo'lovchilar xizmatida bo'lish inobatga olindi. Bundan tashqari haydovchilar uchun alohida yotoqxona mavjud bo'lib, ushbu yotoqxona xizmatlaridan yo'lovchilar xam foydalanish huquqiga egadirlar.

Toshkent shahrida joylashgan "Uzavtovokzal servis" MChJ ga tegishli "Toshkent" avtovokzali 1978-yil iyul oyida ochilgan. Hozirgi kunda 49 nafar xodimlar shtat jadvali asosida, 40 nafari esa kelishuv shartnoma asosida ish faoliyatini yuritib kelmoqdalar. Avtovokzalning bir vaqtdagi sig'imi 2 200 ta yo'lovchiga mo'ljallangan bo'lib, Respublikaning viloyat shaharlari yo'nalishlarida yo'lovchi tashuvchi korxonalar bilan – 13 ta, xalqaro yo'nalishlarda yo'lovchi tashuvchi korxonalar bilan – 14 ta kontraktlar imzolangan va kontraktlar ikki tomonlama kelishilgan ravishda faoliyat yuritib kelmoqda.

Birinchi qavatda 300 – kishiga mo'ljallangan o'rindiqli kutish zali joylashtirilgan, yo'lovchilar uchun axborot – ma'lumot vositalari, yo'l kira va avtobuslarning harakatlanish jadvallari ko'rinadigan joyga osilgan, aloqa bo'limi, uyali aloqa operatorlariga xizmat ko'rsatish, oshxona va qahvaxonalar muntazam ravishda yo'lovchilarga xizmat qilib kelmoqda. Bundan tashqari "Toshkent" avtovokzalida haydovchilar uchun alohida pullik yotoqxona mavjud bo'lib, ushbu yotoqxona xizmatlaridan yo'lovchilar xam foydalanish huquqiga egadirlar. Yo'lovchilarni avtobuslarga chiqish perronlari soni – 31 tani tashkil qilgan va 80 ta avtobus joyi mavjud. Yo'lovchilar va avtovokzal ishchilarining xavfsizligini ta'minlash uchun 90 ta videokuzatish kameralari o'rnatilgan.

"Uzavtovokzal servis" mas'uliyati cheklangan jamiyati bo'yicha jami shtat birliklari — 61 stavka, umumiy ishlovchi xodimlar soni — 51 nafarni tashkil qiladi.

Ishlab chiqarishda bevosita band bo'lgan ishchi xizmatchilar soni — 51 nafar, shundan, boshqaruv xodimlari — 13 nafar, mutaxassislar 20 nafar, texnik xodimlar soni — 2 nafar, xizmat ko'rsatuvchi xodimlar — 16 nafar kishini tashkil qiladi.

“Uzavtovokzal servis” MChJ yuqori malakali, tegishli ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlarga ega shaxslarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibini belgilaydi. Chuqur kasbiy bilimlarga va ilmiy salohiyatga, yuksak intellektual qobiliyatga va axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan kadrlarni tanlash uchun raqobat muhitini yaratish tanlovning maqsadi hisoblanadi. Korxonaga xodimlarni ishga qabul qilish bo'yicha tanlov korxonaning kadrlar tarkibini ishchanlik, shaxsiy va axloqiy fazilatlari, ma'lumoti darajasi va sog'ligiga ko'ra yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarishga layoqatli, korrupsiyaga qarshi qarashlarining davlat siyosati bilan hamohang bo'lgan xodimlar bilan ta'minlash maqsadida o'tkaziladi. Korxonaga jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati va mansab mavqei, dinga bo'lgan munosabati, e'tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligidan qat'iy nazar, o'zining kasbiy, ishchanlik, shaxsiy va axloqiy fazilatlari, ma'lumoti darajasi va sog'ligiga ko'ra korxonaga yuklatilgan vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida qarorlari bilan o'rnatilgan tartibda xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar qabul qilinadi.

“Uzavtovokzal servis” mas'uliyati cheklangan jamiyatida Yo'lovchilarni tashish bo'limi mavjud bo'lib, bir necha mutaxassislarni o'z ichiga oladi, ammo korxona rivojlanishi va kelgusida yuqori natijalarga erishishi hamda xalqqa adolatli xizmat qilishlari uchun “Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi” bo'yicha o'z bilimlarini egallagan talabalarga, yetuk kadrlarga talablar yuqori bo'lib bormoqda. Ushbu mutaxassislik dolzarb kasblar ro'yxati hamda kelajakda talab yuqori bo'lgan kasblar sarasiga kirib bormoqda. Shu sababli Transport vazirligi bilan bir qatorda o'z faoliyatini olib boruvchi Transport universitetiga MChJ o'z kadrlarga va kasblarga bo'lgan ehtiyojlarini yetkazib turadilar.

Toshkent davlat transport universiteti transport sohasi uchun oliy ma'lumotli mutaxassislar va ilmiy kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi. Transport universiteti Respublika transport sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini ilg'or xorijiy tajriba va xalqaro standartlar asosida tubdan takomillashtirish, o'quv jarayoniga o'qitishning innovatsion shakl va metodlari hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, tarmoq ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ilmiy salohiyatini yanada oshirish maqsadida tashkil etilgan. Shu bois “Uzavtovokzal Servis” MChJ ushbu universitetni nazariy bilimlarini egallagan talabalarni amaliy bilimlarini o'tashlari uchun amaliyotga qabul qiladilar. Korxona xodimlari o'zlarinig bilim, ko'nikma va malakalarini talabalarga bajonidil o'rgatadilar. Qolaversa, namunali talabalar qatorida universitetni tamomlagan talabalarni korxona o'z ishchi xodimlari qatoriga qo'shadilar. Kelgusida yuqori martabalarni egallaydigan,

O'zbekiston Respublikasiga xizmat ko'rsatadigan yetuk kadrlar bo'lib yetishlari uchun korxona barcha qulayliklar, imkoniyatlar va sharoitlar bilan ta'minlaydi.

Avtomobil transporti sohasida faoliyat yurituvchi korxonalardan biri "Uzautotrans service" MChJ bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PQ-3584-son "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun respublika tashqarisiga transportda chiqish vaqtida xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ta'sischi'larning 2018-yil 12- martdagi 1-sonli umumiy yig'ilishi qaroriga asosan tashkil etilgan.Hozirgi kunda 151 ta avtobus xalqaro va ichki yo'nalishlarda yo'lovchilarni tashish bilan shug'ullanib kelmoqda.

"Uzautotrans service" MChJ quyidagi faoliyatlarni amalga oshirish mumkin;

- yo'lovchilarni shaharda,shahar atrofida va shaharlararo,xalqaro yo'nalishlarda avtobuslarda tashish;

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining respublika tashqarisiga yo'lovchi avtobuslarida chiqishini tashkil etish;

- Avtobus boshqarish huquqi tegishli malaka toifasiga ega bo'lgan tibbiy tekshiruvdan o'tgan jismoniy shaxs tomonidan amalga oshirilishini ta'minlash;

Uzautotrans service MChJ 2025 yilda 24 ta mahalliy va 10 ta xalqaro yo'nalishlarda yo'lovchilarni tashish bilan shug'ullandi.2024 yilga nisbatan 9 ta ko'p yo'nalish ochilgan. Jamiyatimizga biriktirilgan mahalliy va xalqaro yo'nalishlarda yo'lovchi tashuvchi avtobuslarning barchasi yangi yo'nalish ko'rsatgichlari (trafaretlar) bilan ta'minlangan.Jamiyatga tegishli bo'lgan barcha avtobuslar "Toshkent" avtovokzalidan 7-avtobus saroyi hududiga to'liq joylashtirilgan.Korxona faoliyatini keng ommaga ko'rsatish maqsadida, 5 platformadan foydalanilmoqda.Yo'lovchilarning talablariga muvofiq ichki yo'nalishlar ochilmoqda.Ularga qulaylik yaratish maqsadida chiptalarni online xarid qilish yo'lga qo'yildi.

2026 yilda Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasiga yangi xalqaro yo'nalishlarni ochish rejalashtirilmoqda.

Yo'lovchi tashish hajmini o'tgan yilgiga nisbatan oshirish, yo'lovchilarga xizmat ko'rsatuvchi mahalliy yo'nalishlarni ko'paytirish, yangi yo'nalishlarni tashkil qilish va korxona tomonidan amalga oshiriladigan barcha yo'nalishlarda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish Kapital ta'mirdan chiqarilgan va davlat tomonidan tasdiqlangan yangi xalqaro avtomobil yo'li bo'ylab Qoraqalpog'iston Respublikasining "Dovud ota" chegara bojxona posti orqali Qozog'iston Respublikasining Atirau, Beyneu kabi shaharlariga yo'lovchilarni avtobusda tashishni yilning birinchi choragiga tashkil qilish rejalashtirilgan Transport xarajatlarini kamaytirish:

To'g'ridan-to'g'ri avtobus qatnovlarini tashkil qilish yo'lovchilarga mintaqalar o'rtasidagi harakatlanish xarajatlarini qisqartirish imkonini beradi.

Qulaylik va xavfsizlik: Yangi yo'l va zamonaviy infratuzilma yo'lovchi tashish xizmatlarining yuqori sifatini va xavfsizligini ta'minlaydi.

2026-yilda 500.000 va undan ortiq yo'lovchilarni tashish, 90,1 mlrd. so'm daromad olish. 2024-yilga nisbatan daromadlarni 15,3% ga yoki 11,97 mlrd. so'mga oshirish maqsad qilingan. Bugungi kunda Jamiyatimiz faoliyatini yanada rivojlantirishga bir qancha muammolar to'sqinlik qilmoqda. "Uzautotrans Service" MCHJ va "Uzavtovokzal Service" MCHJ o'rtasidagi (ijara, kommunal to'lov, avtoturargox, perrondan xar bir reys ketishi) shartnomaga asosan xar bir oy uchun 275.000.000 so'm to'lanadi "Uzautotrans Service" MCHJ va "Uzavtovokzal Service" MCHJ O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining tarkibida tashkil qilinganligini va hozirgi kunda "Uzautotrans Service" MCHJning kredit to'lovlarini to'layotganligini hisobga olib, to'lovlarga imtiyoz berilishi taklif qilinadi. Har bir oy uchun to'lanayotgan summa kamaytirilsa, kredit to'lovlarini o'z vaqtida to'lanishi va moddiy-texnik baza yaxshilanishiga erishish

4. Tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) ga muvofiq tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati quyidagi jadvalda keltiriladi:

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Lavozim va kasblar nomi
1.	11200007	Boshqaruv raisi va o'rinbosarlari
2.	11200026	Muassasalar, tashkilotlar va korxonalar rahbarlarining maslahatchisi
3.	12112003	Ishlar boshqaruvchisi rahbari
4.	13211035	Navbatchi smena boshlig'i
5.	13211041	Ta'mirlash ustaxonasi boshlig'i (mudiri)
6.	13211044	Ustaxona boshlig'i
7.	13212008	Bosh energetik
8.	13242002	Avtomobil transportida departament (boshqarma, bo'lim) boshlig'i (mudiri)
9.	13242012	Bosh mexanik (transport)
10.	13242013	Bosh muhandis (transport)
11.	13242022	Ta'mirlash-mexanika ustaxonasi mudiri
12.	13242027	Yoqilg'i quyish majmuasi boshlig'i
13.	13245001	Avtokalonna boshlig'i
14.	21452008	Yoqilg'i-moylash materiallari muhandisi
15.	31151018	Transport vositalarini ta'mirlash bo'yicha mexanik
16.	31154002	Avtomobil kolonnasi mexanigi
17.	31292004	Avtoturargoh nazoratchisi
18.	42210013	Vokzaldagi (avtostansiyadagi) transport-ekspeditsion agentlik punkti bo'yicha navbatchi
19.	42220003	Call-markaz operatori
20.	43220003	Dispetcherlik xizmati operatori
21.	43232004	Avtomobil transporti dispetcheri
22.	43233020	Stansiya navbatchisi huzuridagi operator
23.	43239003	Vokzal navbatchisi

24.	51121004	Yo'lovchilar tashish transporti nazoratchisi
25.	51122001	Chipta nazoratchisi
26.	51122002	Perron nazoratchisi (chipta tekshiruvchi)
27.	52300002	Chipta kassasi tekshiruvchisi
28.	52300003	Chipta kassiri
29.	52300015	Yuk (yukxona) kassiri
30.	52450003	Yoqilg'i quyish shaxobchasi operatori
31.	54140002	Avtomobillar turargohi nazoratchisi
32.	61131006	Ko'kalamzorlashtiruvchi
33.	71263005	Qurilmalarni ta'mirlovchi va xizmat ko'rsatuvchi chilangar
34.	72122007	Gaz payvandchi
35.	72149004	Chilangar-mexanik
36.	72311001	Avtotransport vositalari mexanigi
37.	72311002	Avtotransport vositalarining mexatronikasiga xizmat ko'rsatuvchi mexanik
38.	72311007	Moto va avtotransport vositalari dvigatellarini yig'uvchi chilangar
39.	72319003	Avtomexanik
40.	72319005	Avtomobillarni ta'mirlovchi chilangar
41.	72319006	Avtotransport vositalarini ta'mirlovchi
42.	72339006	Chilangar-ta'mirlovchi (umumiy yo'nalish)
43.	72339020	Navbatchi mexanik
44.	74129012	Chilangar-elektromontajchi
45.	74129020	Elektr jihozlarni o'rnatuvchi
46.	81411031	Shinalarni qoliplovchi
47.	81419023	Shinomontajchi
48.	82190045	Shinalarni o'rnatuvchi
49.	83220001	Avtomobil haydovchisi (yengil)
50.	83310001	Avtobus haydovchisi
51.	83310002	Avtomobil haydovchisi
52.	91220001	Avtobus yuvuvchi

5. Yangi ishlab chiqilishi rejalashtirilgan kasbiy standartlar haqida ma'lumot

T/r	Kasbiy standartlar soni	Qamrab olinadigan lavozim (kasb)lar soni	Ishlab chiqiladigan yil va oy
1.	4	13	2025-yil dekabr
2.	12	48	2026-yil oktabr

6. Tarmoq malaka ramkasi malaka darajalarining tavsifi

Malaka darajasi		Bilim	Ko'nikma (mahorat)	Mas'uliyat va mustaqillik	Kasbiy faoliyat turlari va lavozim (kasb)lar kodi hamda nomi
Milliy malaka ramkasi (MMR)	Tarmoq malaka ramkasi (TMR)				
1	1	Ish joyidagi ichki tartib-qoidalar; Yong'in xavfsizligi qoidalari; Oddiy asbob-uskunalar nomi	Ish joyini tayyorlash; Oddiy asboblardan foydalanish; Texnik xizmat jarayonida oddiy operatsiyalarni bajarish	O'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarish; O'ziga biriktirilgan asbob-jihozlarga javobgarlik; To'liq nazorat, rahbar qo'l ostida ishlash; Vazifalarni aniq ko'rsatmalar asosida bajarish	
2	2	Kasbiy faoliyat sohasi bo'yicha, oddiy bir xildagi topshiriqlarni bajarishda natijaga erishish vositalari va usullari haqida asosiy bilimlar, umumiy amaliy bilimlar	Standart vazifalarni oddiy qoidalar va instrumentlar yordamida bajarish va yo'riqnoma bo'yicha harakat qilish uchun zarur bo'lgan amaliy va kognitiv ko'nikmalar, oddiy ishlab chiqarish sharoitida o'z harakatlarini nazorat qilish va tuzatish ko'nikmalari	Faqat yaxshi o'rgatilgan ish sharoitidagi o'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; Mavjud algoritm va yo'l-yo'riqlarga muvofiq nazorat ostida standart va oddiy vazifalarni bajarish	52.21 Quruqlik transporti sohasidagi xizmatlar 91220001 Avtobus yuvuvchi 43239003 Vokzal navbatchisi
3	3	-sohada ishlashning asosiy tamoyillari;	Oddiy operatsiyalarni bajarish;	Aniq ko'rsatmalarga muvofiq harakat qiladi minimal mustaqillik	33.17 Transport uskunalarining boshqa turlarini ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish

		-ishlab chiqarish texnologiyasi yoki xizmatlar ko'rsatish asoslari; -asosiy kasbiy atamalar; -mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik va ekologiya bo'yicha asosiy talablar; -mehnat qonunchiligi va ichki tartib qoidalarini bilish; Professional bilim: -oddiy operatsiyalarni bajarishning asosiy usullari; -kasbda ishlatiladigan asosiy materiallar, asboblari va jihozlari; -texnik hujjatlarni o'qish va ulardan foydalanish (chizmalar, diagrammalar, ko'rsatmalar)	Texnik hujjatlar, ko'rsatmalar, chizmalar, diagrammalarni o'qish va ulardan foydalanish; Uskunalar texnik xizmat ko'rsatish va kichik ta'mirlash bo'yicha asosiy ko'nikmalar; Ishlarni bajarishda xavfsizlik standartlari va qoidalariga rioya qilish; Oddiy hisobotlarni yuritish va standart hujjatlar shakllarini to'ldirish; Belgilangan muddatlarda va belgilangan standartlarga muvofiq vazifalarni bajarish; Hamkasblar, mijozlar, rahbariyat bilan samarali hamkorlik; Jamoadi ishlash, korporativ me'yori va standartlarga rioya qilish; Kasbiy faoliyat doirasida malakali va muloyim muloqot; O'z sohangizi bo'yicha yangi texnologiyalarni o'rganish va o'zlashtirishga tayyorlik	darajasi, qarorlar berilgan algoritmlar doirasida qabul qilinadi; muntazam operatsiyalarni mustaqil bajarish- doimiy nazoratsiz tanish vazifalarni bajarishi mumkin; qiyin yoki nostandart vaziyatlarda, rahbariyatga yoki ko'proq tajribali hamkasblarga murojaat qiladi; oddiy jarayonlarni nazorat qila oladi- uskunaning ishlashini va topshiriqni bajarish sifatini nazorat qiladi	43220003 Dispetcherlik xizmati operatori 72319005 Avtomobillarni ta'mirlovchi chilangar 81419023-Shinomontajchi 72311007 Moto va avtotransport vositalari dvigatellarini yig'uvchi chilangar 52.21 Quruqlik transporti sohasidagi xizmatlar 42210013 Vokzaldagi (avtostansiyadagi) transport-ekspeditsion agentlik punkti bo'yicha navbatchi 42220003 Call-markaz operatori 54140002 Avtomobillar turargohi nazoratchisi 52450003 Yoqilg'i quyish shaxobchasi operatori 83310001 Avtobus haydovchisi 43233020 Stansiya navbatchisi huzuridagi operator 51122002 Perron nazoratchisi (chipta tekshiruvchi) 51121004 Yo'lovchilar tashish transporti nazoratchisi 52300003 Chipta kassiri
--	--	--	--	---	--

4	4	- sohada ishlashning asosiy tamoyillari; -ishlab chiqarish texnologiyasi yoki xizmatlar ko'rsatish asoslari; -asosiy kasbiy atamalar; -mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik va ekologiya bo'yicha asosiy talablar; -mehnat qonunchiligi va ichki tartib qoidalarini bilish; Professional bilim: -oddiy operatsiyalarni bajarishning asosiy usullari; -kasbda ishlatiladigan asosiy materiallar, asboblari va jihozlari; -texnik hujjatlarni o'qish va ulardan foydalanish (chizmalar, diagrammalar, ko'rsatmalar); -jamoaviy ish asoslari, biznes aloqa standartlari.	Texnik hujjatlar, ko'rsatmalar, chizmalar, diagrammalarni o'qish va ulardan foydalanish; Uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish va kichik ta'mirlash bo'yicha asosiy ko'nikmalar; Ishlarni bajarishda xavfsizlik standartlari va qoidalariga rioya qilish; Oddiy hisobotlarni yuritish va standart hujjatlar shakllarini to'ldirish; Belgilangan muddatlarda va belgilangan standartlarga muvofiq vazifalarni bajarish; Hamkasblar, mijozlar, rahbariyat bilan samarali hamkorlik; Jamoada ishlash, korporativ me'yori va standartlarga rioya qilish; Kasbiy faoliyat doirasida malakali va muloyim muloqot; O'z vakolati doirasida ma'lumotni mustaqil ravishda izlash qobiliyati; Mehnatni muhofaza qilish standartlari, xavfsizlik	Aniq ko'rsatmalarga muvofiq harakat qiladi minimal mustaqillik darajasi, qarorlar berilgan algoritmlar doirasida qabul qilinadi; muntazam operatsiyalarni mustaqil bajarish- doimiy nazoratsiz tanish vazifalarni bajarishi mumkin; qiyin yoki nostandart vaziyatlarda, rahbariyatga yoki ko'proq tajribali hamkasblarga murojaat qiladi; oddiy jarayonlarni nazorat qila oladi- uskunaning ishlashini va topshiriqni bajarish sifatini nazorat qiladi	33.17 Transport uskunalarining boshqa turlarini ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish 43232004 Avtomobil transporti dispetcheri 52.21 Quruqlik transporti sohasidagi xizmatlar 51122001 Chipta nazoratchisi 52300002 Chipta kassasi tekshiruvchisi
---	---	---	---	---	---

			qoidalar va sanitariya talablariga rioya qilish		
5	5	-kasbiy sohadagi zamonaviy nazariyalar va tushunchalar – fundamental va amaliy tamoyillarni tushunish; -me'yoriy-huquqiy bazani chuqur bilish -qonunlar, standartlar, qoidalar, xalqaro talablar; -boshqaruv va yetakchilik asoslari – jamoalarni, loyihalarni, jarayonlarni boshqarish. Kasbiy bilim: -texnologiyalar va ish uslublarini chuqur bilish— ilg'or vositalar va usullardan foydalanish; -tahlil va prognozlash usullari-ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash, tendensiyalarni bashorat qilish; -sifat nazorati va risklarni boshqarish —ishonchlilik va xavfsizlikni ta'minlash; -strategik rejalashtirish maqsadlarni belgilash,	Kasbingizning texnologiyalari va vositalarini chuqur bilish - ilg'or uskunalar va dasturiy ta'minot bilan ishlash qobiliyati; murakkab ma'lumotlarni tahlil qilish va prognozlash — vaziyatni baholash va qaror qabul qilish uchun tahliliy usullardan foydalanish; yangi texnologiyalar va usullarni ishlab chiqish va joriy etish—jarayonlarni optimallashtirish, innovatsion yechimlarni joriy etish; sifat va xavfsizlikni boshqarish—standartlarni nazorat qilish, qoidalar va talablarga rioya qilish; muvofiqlashtirish va jamoani boshqarish— jamoani boshqarish, vazifalarni belgilash, bajarilishini nazorat qilish; biznes jarayonlarini optimallashtirish — ish	Mas'uliyat: -jarayonlarning xavfsizligi va barqarorligi uchun — normalar va standartlarga rioya etilishini nazorat qilish, xavflarni kamaytirish. -jamoaviy ish va faoliyatni tashkil qilish uchun — jamoani boshqarish, kompleks loyihalarni muvofiqlashtirish. -nostandart va tanqidiy vaziyatlarda qaror qabul qilish uchun — tezkor tahlil qilish va optimal echimni tanlash. -me'yoriy talablar va qonun hujjatlariga muvofiqligi uchun — xalqaro va milliy standartlar doirasida ishlash. Mustaqillik: -murakkab qarorlarni mustaqil ravishda qabul qilish — rahbariyat	52.21 Quruqlik transporti sohasidagi xizmatlar 31154002 Avtomobil kolonnasi mexanigi 31292004 Avtoturargoh nazoratchisi

		rivojlanish rejalarini ishlab chiqish	samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish; ishbilarmonlik muloqoti va muzokaralar olib borish ko'nikmalari — muzokaralar olib borish, hamkorlar, mijozlar va davlat organlari bilan o'zaro aloqada bo'lish; professional maslahat — bilimlarni uzatish, xodimlarni o'qitish, murabbiylik; notiqlik mahorati — loyihalarni taqdim etish, g'oyalarni himoya qilish, tinglovchilar bilan muloqot qilish; moslashuvchanlik va moslashuvchanlik — yangi bilimlarni tezda o'zlashtirish va amaliyotda qo'llash qobiliyati; stressga chidamlilik va hissiy aql-his-tuyg'ularni boshqarish va stressli sharoitlarda samarali ishlash qobiliyati	tomonidan nazoratga minimal ehtiyoj. -yetakchilik fazilatlar va tashabbuskorligi — strategik maqsadlarni belgilash va ularga erishish. -yuqori noaniqlik sharoitida ishlash qobiliyati — xavflarni tahlil qilish, o'zgarishlarga moslashish. -o'z yechimlarini ishlab chiqish va amalga oshirish — yangi yondashuvlarni yaratish uchun professional bilimlarni qo'llash. -natija uchun moslashuvchanlik va mas'uliyat — ko'plab omillarni hisobga olgan holda o'zgarishlarga tezkor javob berish	
6	6	Umumiy bilim: -milliy va xalqaro standartlar (ICAO, IATA, EASA, FAA);	Avtobusni boshqarish-avtotransport tamoyillarini bilish,	Mas'uliyat: -murakkab vazifalarni bajarish uchun shaxsiy javobgarlik —	49.31 Shahar va shahar atrofida qatnaydigan quruqlikdagi yo'lovchi transporti


		-meteorologiya, navigatsiya va aerodinamika; -favqulodda tartib-qoidalar — tizimning ishdan chiqishi, favqulodda qo'nish, evakuatsiya qilish holatlarida harakatlar; -mehnat jarayonlarini tashkil etish asoslari; -tarmoqdagi faoliyatni tartibga soluvchi qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar; -mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va ekologiya asoslari. Kasbiy bilim: -o'z sohasi bo'yicha texnologik jarayonlar va sifat standartlarini chuqur bilish; -samolyotning tuzilishi va tizimlari; -radioaloqa va muzokaralar tartibi; -ma'lumotlar asosida tahlil qilish, prognozlash va qarorlar qabul qilish usullari;	yo'nalishlarning turli bosqichlarida boshqarish; avtotransport tizimlari bilan ishlash; texnik hujjatlarni o'qish va tahlil qilish — ko'rsatmalar, nazorat varaqlari; avtotransport asboblari bilan ishlash; avtotransport yoqilg'isidan foydalanish va yukni boshqarish — massa, markazlashtirish, yoqilg'i zaxirasini hisoblash; meteorologik sharoitlarni baholash — ob-havoni tahlil qilish, marshrutga ta'sirni hisoblash; reyslarni rejalashtirish; avtobus tizimlarining ishlashini nazorat qilish — yo'nalish parametrlarini doimiy monitoring qilish	standartlar, qoidalar, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish; -guruh ishi uchun javobgarlik — topshiriqlarning bajarilishini nazorat qilish, xavfsizlik va sifatni ta'minlash; -risklarni boshqarish — xavflarni baholash va oldini olish, favqulodda vaziyatlarga tezkor javob berish; -me'yoriy talablarga rioya qilish — qonunlar, qoidalar va standartlar doirasida ishlash; -tanqidiy vaziyatlarda qaror qabul qilishga tayyorlik. Mustaqillik: -kasbiy vazifalarni mustaqil bajarish; -tashabbus — takomillashtirishni taklif qilish, ishga yangi yondashuvlarni ishlab chiqish qobiliyati	21452008 Yoqilg'i-moylash materiallari muhandisi
--	--	---	---	---	--

		- professional dasturiy ta'minot va avtomatlashtirilgan tizimlar bilan ishlash ko'nikmalari; - mehnat samaradorligi va xavfsizligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish; -nostandart vaziyatlarda risklarni baholash va qaror qabul qilish usullari			
7	7	Umumiy bilim: -o'z sohangizdagi jarayonlarni tashkil etish va boshqarish asoslari, texnologiyalar, uskunalar va asboblarni chuqur bilish; -tahliliy faoliyat asoslari; -mehnat to'g'risidagi qonunlar, qoidalar va xavfsizlik standartlari; -xodimlarni boshqarish va biznes aloqasi asoslari; -nostandart kasbiy muammolarni hal qilish usullari. Kasbiy bilim:	Texnik va kasbiy ko'nikmalar: -murakkab texnik hujjatlarni (chizmalar, diagrammalar, ko'rsatmalar) o'qish, tahlil qilish va ulardan foydalanish; -jarayonlar, xizmatlar sifatini, standartlarga muvofiqligini nazorat qilish; -ma'lumotlarni tahlil qilish, hisobot berish; -kichik mutaxassislarni tayyorlash va ularga maslahat berish (agar kerak bo'lsa).	Mas'uliyat: -ish natijalari va operatsiyalarning aniqligi uchun; -sifat va xavfsizlik standartlariga muvofiqligi uchun; -kichik mutaxassislarni nazorat qilish yoki boshqarish uchun; -standart va favqulodda vaziyatlarda qarorlar qabul qilish uchun; -uskunalar va materiallarning xavfsizligi uchun; Mustaqillik:	49.31 Shahar va shahar atrofiga qatnaydigan quruqlikdagi yo'lovchi transporti 13242002 Avtomobil transportida departament (boshqarma, bo'lim) boshlig'i (mudiri) 13242013 Bosh muhandis (transport) 52.21 Quruqlik transporti sohasidagi xizmatlar 13242012 Bosh mexanik (transport)

		-texnologik jarayonlar, sifat va xavfsizlik standartlarini chuqur bilish; -murakkab texnik hujjatlarni, chizmalarni, diagrammalarni o'qish va sharhlash; -professional dasturiy ta'minot, uskunalar va boshqaruv tizimlarida malaka; -ma'lumotlarni tahlil qilish va hisobot berish asoslari; -diagnostika va muammolarni bartaraf etish usullari; -mijozlarning o'zaro munosabatlari asoslari	Tashkiliy va boshqaruv qobiliyatlari: -o'z vakolatlari doirasidagi ishlarni rejalashtirish va muvofiqlashtirish; -resurslarni samarali taqsimlash (material, vaqt, mehnat); -topshiriqlarni bajarish muddatlari va sifatini nazorat qilish; -standart va favqulodda vaziyatlarda qaror qabul qilish. Kognitiv va muloqot qobiliyatlari: -hamkasblar, mijozlar, rahbariyat bilan biznes aloqalari; -kichik xodimlarni ustozlik qilish va tayyorlash ko'nikmalari; -ish jarayonidagi o'zgarishlarga tez moslashish qobiliyati; -muzokaralar olib borish va nizolarni hal qilish qobiliyatlari. -yangi bilimlarni mustaqil ravishda topish va qo'llash qobiliyati	-belgilangan qoidalarga muvofiq ishlaydi, lekin ish usullarini vaziyatga qarab moslashtira oladi; -o'z vakolatlari doirasida mustaqil ravishda qarorlar qabul qiladi — rahbariyatdan doimiy nazoratni talab qilmaydi; -boshqa mutaxassislar ishini muvofiqlashtirish va jarayonlarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berishi mumkin; -o'z ishini tashkil qiladi va kerak bo'lganda samaradorlikni oshirish uchun vazifalarni qayta taqsimlaydi	
--	--	--	---	--	--

8	8	Murakkab g'oyalarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va sintez qilish uchun zarur bo'lgan ilmiy va kasbiy faoliyat sohasidagi eng ilg'or innovatsion va ixtisoslashgan bilimlar	Murakkab g'oyalarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va sintez qilish uchun zarur bo'lgan ilmiy va kasbiy faoliyat sohasidagi eng ilg'or innovatsion va ixtisoslashgan bilimlar	Murakkab g'oyalarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va sintez qilish uchun zarur bo'lgan ilmiy va kasbiy faoliyat sohasidagi eng ilg'or innovatsion va ixtisoslashgan bilimlar	
---	---	---	---	---	--

7. Tarmoqning funksional xaritasi



**8. Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot
(korxona)lar to'g'risida ma'lumot**

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1.	"Toshshahartransxizmat" AJ boshqaruv raisi o'rinbosari	Kadirov Kamiljon Kazimovich
2.	"Toshshahartransxizmat" AJ Harakat tarkibi shayligini oshirish va texnik holatini nazorat qilish boshqarmasi boshlig'i	Toshkenboyev Saidmaxmud Rustam o'g'li
3.	"Toshshahartransxizmat" AJ Yo'lovchi tashishni tashkil etish, yo'nalish tarmog'ini muvofiqlashtirish va takomillashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi	Mirzaraxmedov Shuxrat Artiqboyevich
4.	"Toshshahartransxizmat" AJ Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'limi bosh mutaxassisi	Axmedxodjayeva Xushnuda Yusupovna
5.	"Toshshahartransxizmat" AJ Istiqbolli rivojlanish va moliyaviy tahlil boshqarmasi boshlig'i	Gafurova Zulfiya Yuldashevna
6.	"Uzavtovokzal Servis" MCHJ Bosh muhandis	Boboyev Ne'matjon Kenjayevich
7.	"Uzavtovokzal Servis" MCHJ .Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish sho'basi yetakchi mutaxassisi	Tuychiyev Bobir Abdusalomovich
8.	"Uzavtovokzal Servis" MCHJ Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish sho'basi boshlig'i	Shamaxmudova Akida Raximjanovna
9.	"Uzavtovokzal Servis" MCHJ Yo'lovchi tashish bo'limi bo'lim boshlig'i	Najmiddinov Shamsiddin Sharafitdin o'g'li
10.	"Uzautotrans service" MChJ Bosh direktor o'rinbosari v.v.b.	Niyazov Zoxid Zoirovich
11.	"Uzautotrans service" MChJ Xodimlar bo'limi boshlig'i	Isayeva Nargiza Shokitxanovna
12.	"Uzautotrans service" MChJ Xodimlar bilan ishlash bo'limi inspektori	Ruziyeva Fazilat Zafarovna

Mazkur Tarmoq malaka ramkasi Transport va avtomobilsozlik sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining 1-aprel 2026-yildagi 3-son yig'ilishida muhokama qilingan.

Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining 16-fevral 2026-yildagi TMR-029 – son xulosasi.

Avtomobil transporti sohasi

TARMOQ MALAKA RAMKASI



Transport va avtomobilsozlik sohalarida
kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha
tarmoq kengashi

